





# VI GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2021 : CENTRAL ASIA

## INTERNATIONAL SCIENTIFIC PRACTICAL CONFERENCE



Nur-Sultan (Astana), 2021

## UMUMTA'LIM MAKTABLARNING MODDIY-TEXNIK BAZASINI RIVOJLANTIRISH

AKRAMOV DOSTON FAXRIDDIN O'G'LI.  
BuxDU Jahon tarixi kafedrası o'qituvchi

Har qanday davlat o'zining yuksak madaniyati, ma'naviyati va intellektual salohiyati bilan qudratli sanaladi. Shu sababli, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va yangi "Davlat ta'lim standartlari"ning qabul qilinishi hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarining ish faoliyatimizga kirib kelishi, ta'lim sohasining barcha turlarining isloh qilinishini boshlab berdi.

Bugunda yurtimizning istiqloq yo'lidagi ilk qadamlaridanoq, asriy qadriyatlarimizni, ma'naviyatimizni tiklash va yuksaltirish yo'lida milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini yanada mustahkamlash va zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan holda jahon andozalari darajasiga chiqarish asosiy maqsad qilib olingan. Zero, ilm –fan madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakatning taraqqiyotini ta'minlaydi. Kelajagini oldindan ko'rsatib beradi. Eng muhimi ilm –ma'rifat insonni komillik sari yuksaltiradi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlar ta'lim –tarbiyasiga e'tibor berilib, maktablar moddiy – texnik bazasi va uning ijtimoiy ahvoli haqida masala ko'rib chiqildi. Ayniqsa, birgina 2010–yilning o'zida shu borada ishlarimiz yangi bosqichga ko'tarilib, yurtimiz bo'yicha jami 1957 ta maktab qurilgan va rekonstruksiya qilingan bo'lsa, ularning 1622 tasi aynan qishloq joylarida ekani diqqatga sazovordir.<sup>143</sup>

2010–yil "Barkamol avlod" yilida o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini joriy etish hisobiga mamlakat maktablarida ta'lim berish sifatini yaxshilash, ta'lim muassasalari o'quv-laboratoriya bazasini eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash asosiy masala sifatida kun tartibiga qo'yilgan.<sup>144</sup>

Yurtimizda ta'lim muassasalarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasida ishlar izchil davom ettirilmoqda. 2014-yilda hammasi bo'lib 540 obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi.<sup>145</sup> 2014-yil mobaynida bolalar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor berilib, 73 ta maktab sport zali barpo etildi.

O'zbekiston Respublikasida jahon tajribalari asosida ijtimoiy sohada olib borilgan ishlar mazmuniga ko'ra yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga imkoniyat yaratish uchun ko'pgina shart-sharoitlar vujudga keltirish borasida maktab va uning moddiy –texnik bazasi tarkibiga kiruvchi sport mashg'ulotlari hamda sport maskanlarini barpo etish yoki ayrim yangi sport turlariga ixtisoslashgan sport mashg'ulotga yanada faol tashkil etish uchun hududlarda aynan, Navoiy viloyati Navoiy shahar Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi tomonidan yangi sport turlarini tashkil etish to'g'risida buyruq chiqarilib yoshlarni yana ham faol sport va sog'lom turmush tarzi tatbiq etish vazifalari topshiriq etib belgilandi.<sup>146</sup>

<sup>143</sup> Islom Karimov "Barkamol avlod-kelajagimiz tayanchi". T.:Ma'naviyat. 2010. 5-bet.

<sup>144</sup> // "Xalq so'zi" 2009-yil 10-dekabr.

<sup>145</sup> Islom Karimov "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish –eng oliy saodatdir". T.:O'zbekiston. 2015. 236-bet.

<sup>146</sup> Navoiy viloyati davlat arxivi, 439-fond, 1-ro'yxat, 6-saqlov birligi, 8-varaq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoniga binoan to'rtinchi tamoyil tarkibi sifatida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda 2016-yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy soha bilan bir qatorda, ijtimoiy sohada ham chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Istiqlol yillarida respublikamizda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi 5 barobar ko'paytirildi. Har yili davlat byudjetining qariyb 60 foizi shu sohaga yo'naltirilgan.<sup>147</sup>

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ta'lim samaradorligi, taraqqiyotning 16 foizi –moddiy-texnik bazaga, 20 foizi –axborot resurslariga, 64 foizi – inson omiliga bog'liq. Bu uchala omil bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiyaning moddiy texnik bazasi, mavjud resurslaridan, imkoniyatlaridan oqilona foydalanish inson manfaatiga xizmat qiladi va uning ratsional rivojlanishini belgilab beradi.<sup>148</sup> "Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muxandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi. Maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim tizimlari bilan uzviylikni ta'minlashga ham e'tibor berish kerak", — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda Prezident Sh.Mirziyoevning "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida keng ko'lami islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yurtimizdagi ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish masalasiga ham davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Olib borilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish maqsadida joriy yilning 19 fevralida Vazirlar Mahkamasining "2020-2022 yillarda xalq ta'limi muassasalarini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi [regulation.gov.uzsaytigaumumiy-muhokama-uchun-qo'yildi](http://regulation.gov.uzsaytigaumumiy-muhokama-uchun-qo'yildi). Mazkur qaror loyihasida 2020-2022 yillarda xalq ta'limi muassasalarining mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va o'qitishning texnik vositalari bilan ta'minlash kabi asosiy masalalar qayd etilgan. Shuningdek, qaror loyihasiga ta'lim muassasalari qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda jihozlash (to'liq jihozlash)ning har yilgi dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi to'g'risida Nizom ilova qilingan. Qaror loyihasiga asosan, dastur doirasida xalq ta'limi muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "O'quv ta'lim ta'minot" davlat unitar korxonasi va "Xalq ta'limi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish ob'ektlari sifatini monitoring qilish bo'yicha injiniring kompaniyasi" davlat unitar korxonasi buyurtmachi etib belgilangan. Loyihaga ko'ra, dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan mas'ul bo'lgan vazirlik, idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirish, belgilangan tadbirlarning to'liq va sifatli bajarilishi yuzasidan monitoring va nazoratni amalga oshirish belgilangan. Dastur bajarilishini muvofiqlashtiruvchi komissiya belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan mas'ul bo'lgan vazirlik, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirishni, belgilangan tadbirlarning to'liq va sifatli bajarilishi yuzasidan monitoring va nazoratni amalga oshiradi.

Quyidagilar Dasturni moliyalashtirish manbalari etib belgilanadi:

Davlat byudjeti mablag'lari;

imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar;

jismoniy va yuridik shaxslarining homiylik xayriyalari;

<sup>147</sup> // "Xalq so'zi", 2017-yil 8-fevral.

<sup>148</sup> 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.T.:Ma'naviyat.2017. 90-bet.

deganidir”.<sup>151</sup> Odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ayni paytda istiqbol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu vazifani umumiy o'rta ta'lim maktablari bajarishi lozim sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov “Barkamol avlod-kelajagimiz tayanchi”. T.:Ma'naviyat. 2010.
2. Islom Karimov “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish –eng oliy saodatdir”.T.:O'zbekiston. 2015.
3. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola.T.:Ma'naviyat.2017.
4. //“Xalq so'zi” 2009-yil 10-dekabr.
5. // “Xalq so'zi”,2017-yil 8-fevral.
6. Navoiy viloyati davlat arxivi, 439-fond, 1-ro'yxat, 6-saqlov birligi,
7. Navoiy davlat statistika boshqarmasi. 2016-yil.
8. Navoiy davlat statistika boshqarmasi. 2017-yil.

УДК 330.341.1:004.031.43(517)

## ОЦЕНКА ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРИМЕНЕНИЯ БЛОКЧЕЙНА В РК

**Жубан Мейрамбек**

Студент экономического факультета ЕНУ им. Л.Н. Гумилева

Нур-Султан, Казахстан

Научный руководитель – Мадиярова Д.М.

### Аннотация

Поведенческая основа взаимодействия в виртуальной среде и применение технологии блокчейн является актуальной проблемой и его концепции все более внедряются в государственную политику развития инновационной экономики многих стран мирового хозяйства.

Двойственная природа блокчейна – выступать в роли помощника, одновременно подменяя функции корпораций и государства, диктуют неоднозначные возможности для его продвижения в практику хозяйствования. Соответственно, это волнует большинство государств, поскольку ставит задачу формирования эффективной организации работы при наличии режима доверия между властью, бизнесом и населением страны.

В статье рассматриваются проблемы внедрения данной технологии, освещаются возможности и предпосылки в Республике Казахстан.

**Ключевые слова:** блокчейн, технология блокчейн, государство, корпорации, граждане, майнинг, криптовалюта.

<sup>151</sup> Islom Karimov “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish –eng oliy saodatdir”.T.:O'zbekiston. 2015. 235-bet.

Русаков А., Билук В., Муравьева С.А. (Нур-Султан, Казахстан) ТЕХНОЛОГИЯ ПЕРЕРАБОТКИ ВТОРИЧНЫХ ЭНЕРГОРЕСУРСОВ ПУТЕМ АНАЭРОБНОГО БРОЖЕНИЯ.....	243
Стеценко А., Тимурин Д., Муравьева С.А. (Нур-Султан, Казахстан) ПОЛУЧЕНИЕ УГЛЕВОДОРОДНОГО ТОПЛИВА ПУТЕМ ПЕРЕРАБОТКИ ВТОРИЧНОГО СЫРЬЯ.....	246
Садриддинова Д., Эшмухаммедова М. (Тошкент, Ўзбекистон) “МАРАҲУ-Л-АРВАҲИ” АСАРИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	250
Усмонов М.Б., Алимахмад А., Мухторов П.А. (Душанбе, Тоҷикистон) МОНИТОРИНГИ ТИРАГЎ, ШАФФОФНОКЎ ВА НИТРАТИ ОБ ДАР ҲАВЗАИ ТАНЗИМИ ШАБОНАРЎЗИ ДАР ш.ДУШАНБЕ ДАР ТАЪРИХИ 1- ум 5 - ум ва15 - уми МОҲИ АПРЕЛ ДАР СОЛИ 2019.....	253
Akramov D.F. UMUMTA'LIM MAKTABLARNING MODDIY-TEKNIK VAZASINI RIVOJLANTIRISH.....	260
Жубан М., Мадиярова Д.М. (Нур-Султан, Казахстан) ОЦЕНКА ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРИМЕНЕНИЯ БЛОКЧЕЙНА В РК.....	264
Евменчик И.В., Балтушко А.В. (Могилев, Беларусь) ДИАГНОСТИКА ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ.....	267
Мустафоев Ж.А., Авазонова А.А. (Навоий, Ўзбекистон) ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАҲТА ИШИ” УЙДИРМАЛАРИ ВА УНИНГ ФОЖЕАЛИ ОҚИБАТЛАРИ.....	271
Махмудова С.М. ПРОФЕССИОНАЛ МУСИҚА ТАЪЛИМИДА “МУСИҚИЙ АСАРЛАР ТАҲЛИЛ” ФАНИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	275
Мирталипова И.М. ҚАЙТА УЙҒОНИШ ДАВРИДА МИКРОХРОМАТИКА.....	278
Давыдова Т.Ю. (Ташкент, Узбекистан) ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КУРСЕ МУЗЫКАЛЬНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН.....	281
Бердыханова Ш.Н. (Ташкент, Узбекистан) ЭПИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ КАРАКАЛПАКСКОГО НАРОДА.....	283
Миронова Е.И. (Караганда, Казахстан) СКАЗКОТЕРАПИЯ ДЛЯ ВЗРОСЛЫХ - КАК МЕТОД ИСЦЕЛЕНИЯ ДУШИ.....	286
Журатов Э.З., Давлетова М.Т. (Алматы, Казахстан) ПОВЫШЕНИЕ ЛОЯЛЬНОСТИ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ АВТОСАЛОНА.....	289
Элмуродова Б.Э., Якубов М. (Карши, Узбекистан) ПОТРЕБЛЕНИЕ БИОГЕННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ПОГРУЖЁННЫМИ МАКРОФИТАМИ В РЫБОВОДНОМ ПРУДЕ.....	293
Sekenova D.B., Nurumov V.A. (Pavlodar, Kazakhstan) FORMATION OF MORAL AND ETHICAL QUALITIES OF ADOLESCENTS IN THE LEARNING PROCESS.....	297
Мархабатова Д.Д., Мархабатова Д.Д., Мархабатова Ж.Д., Мархабатов Н. ГРОТЕНДИК ГРУППАСЫ.....	300
Ўзбекбай Н.Б., Касимова К.Т., Сарбаканова Ш.Т., Айтлесова Р.Б. (Алматы қ., Қазақстан) СҮТТЕГІ АФЛОТОКСИН М1-ДІ ИММУНОФЕРМЕНТТІК ТАЛДАУ ӘДІСІ АРҚЫЛЫ АНЫҚТАУ.....	303
Бекбергенова М.Д. (Нукус. Қарақалпақстан)ТИПОЛОГИЯ МӘСЕЛӘЛЕРИ ҲӘМ КӨРКЕМ АҮДАРМА.....	306
Sattarova M.M., Rasulova Kh.A. (Tashkent, Uzbekistan) COGNITIVE DISORDERS IN DIFFERENT TYPES OF EPILEPSY.....	310
Tishabaeva M.B., Rasulova Kh.A. (Tashkent, Uzbekistan) EXTRAPYRAMIDAL SYNDROMES AFTER STROKE.....	313
Джахангирова Г.З., Мирходжаева Д.Д. (Ташкент, Узбекистан) ВЛИЯНИЕ ПРОРОЩЕННОГО ЗЕРНА МАША НА КАЧЕСТВЕННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ХЛЕБА ИЗ ПШЕНИЧНОЙ МУКИ.....	316